

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**RESEARCH ON SOURCES RELATED TO THE BIOGRAPHY OF HASANMUROD LAFFASIY****Surayyo Savronovna Dustova**

Associate Professor, Doctor of Philosophy in Philology (PhD)

Jizzakh State Pedagogical University

Email: surayyodustova9@gmail.com

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE**Key words:** tazkira, source, secretary, copy, inventory, collection, ghazal, masnavi, work, letter, literature, poem, sheet, author.**Received:** 23.10.25**Accepted:** 24.10.25**Published:** 25.10.25**Abstract:** This article provides information about the biography of Hasanmurod Laffasiy, one of the prominent representatives of the Khiva literary environment, as well as about his works as a poet and his poetic style. In addition, the genres in which he created are studied and corresponding conclusions are drawn.**HASANMUROD LAFFASIY BIOGRAFIYASIGA OID MANBALAR TADQIQI****Surayyo Savronovna Do'stova**

Dotsent f.f.f.d. (PhD)

Jizzax davlat pedagogika universiteti

surayyodustova9@gmail.com

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA**Kalit so'zlar:** tazkira, manba, kotib, nusxa, inventar, fond, g'azal, masnaviy, asar, xat, adabiyot, she'r, varaq, muallif.**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xiva adabiy muhitining yetuk vakillaridan bo'lgan Hasanmurod Laffasiyning biografiyasiga oid ma'lumotlar va shoir sifati yozgan asarlari, uning nazmdagi uslubi haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, qaysi janrlarda ijod bilan shug'ullanganligi o'rganilib xulosalar beriladi.**ИССЛЕДОВАНИЕ ИСТОЧНИКОВ, СВЯЗАННЫХ С БИОГРАФИЕЙ
ХАСАНМУРОДА ЛАФФАСИЯ****Сурайё Савроновна Дустова**

Джизакский государственный педагогический университет

Доцент, доктор философии по филологическим наукам (PhD)

Эл. почта: surayyodustova9@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: тазкира, источник, секретарь, копия, инвентарь, фонд, газель, маснави, произведение, письмо, литература, стихотворение, лист, автор.

Аннотация: В данной статье представлена информация о биографии Хасанмурода Лаффасия — одного из выдающихся представителей Хивинской литературной среды, а также о его произведениях как поэта и особенностях его поэтического стиля. Кроме того, изучаются литературные жанры, в которых он творил, и делаются соответствующие выводы.

XIX asr oxiri va XX asr boshlari Xorazm adabiy muhitining baravj faoliyati davrida bir qancha shoir va adiblar, tarixnavis va tazkiranavislar, olim va san'atkorlar, musiqashunos va go'yandalar (qo'shiq yozuvchilar) yetishib chiqdiki, bu o'z navbatida juda ko'p fan sohalari kabi adabiyot va san'atning ravnaq topishiga sabab bo'ldi. Muhammad Rahimxon II-Feruz nomi bilan bog'liq bu davr adabiy muhiti o'ziga xos adabiy an'analarga ega edi. Feruz atrofida o'ziga xos uslubi va tizimli faoliyatiga ega bo'lgan, taraqqiy etayotgan adabiy maktab mavjud edi. Ana shu adabiy muhitning yirik namoyandalaridan biri adabiyotshunos va tarixchi Hasanmurod Laffasiy hisoblanadi.

Laffasiy ijodini o'rganish dastlab adib vafotidan sal o'tib, ya'ni 1960 yillardan boshlangan. Jumladan, E.Ibrohimova: «Laffasiy – Hasanmurod qori Muhammadamin o'g'li Xivaning Ko'hna qal'a masjidi yaqinidagi Otamurod qori qushbegi mahallasida hunarmand oilasida tug'iladi. U ilk bilimni eski maktabda oladi, adabiyotni sevadi va Laffasiy taxallusi bilan «Komkor ul ushshoq» nomli devon tuzadi», –degan ma'lumotni taqdim qilgan. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida esa: «Laffasiy – (taxallusi, asl ismi Hasanmurod Muhammad Amin o'g'li) (1880-Xiva 1945) o'zbek shoiri, tarixchi va tazkiranavis», –deb yozilgan.

Laffasiy va uning otasi haqida ba'zi adabiyotlarda chalkashliklar mavjud. Davlatyor Rahim va Shixnazar Matrasul «Feruz» nomli kitobda qozi va muftilar haqida gapirib, «Shokir Rog'ibning otasi Qozi Shokir o'g'li Urganchda, shoir va tarixchi Umidiyning otasi Abdulla qozi Hazoraspeda, shoir va tazkirachi Muhammad Ali Laffasiyning otasi Olloberdi oxund Xevada, Yo'lbuzar oxund Haqiriyning otasi Muhammad Karim Xevada qozikalon bo'lib ishlaganlar», –deb, manbasi ko'rsatilmagan ma'lumotni keltirgan.

Laffasiy esa o'zi haqida «Gulshani saodat» asarida: «Haqir al-qalil mullo Hasanmurod qori bo mullaqab Komkor ul-ushshoq bin Muhammad Amin bin Muhammad Nazar devon bin Qilich Niyozboy bin Niyozmuhammad mahram Xevaqi», –deb qayd qilgan. Tarixchi olim O.Jalilov esa shunday yozadi: «Xiva shahrida Hasan bobo nomi bilan dong chiqargan o'zbek xalqining

sevimli farzandi, taniqli tarixchi, adabiyotshunos olim va shoir Hasanmurodning to‘la ismi sharifi Mullo Hasanmurod qori Muhammad Amin o‘g‘li bo‘lib, adabiy taxallusi Laffasiydir».

Laffasiy o‘zining «Tazkirai shuaro» asarida tarjimai holini quyidagicha to‘liq keltiradi: «... Ammo Laffasiykim, ul Hasanmurod qori nomi bilan mashhur bo‘lib, kambag‘al oilasidan bo‘lib, otasi hunarmand bo‘lganidan xalqlarning xizmati birlan avqot kechirib turadir. Ammo Laffasiy 1880 yil, ya’ni hijriy 1299 hijriyda mohi shavvolning birlanchi namozi juma kunining tuluindin bir soat muqaddam tavallud topib, ona tarbiyasida kamolga yetishib, eski diniy maktablarda o‘qib, xat savodli bo‘lgach, diniy madrasa ichra biron xizmatda bo‘lgan holda anchagina xizmat natijasida ul Laffasiy taxallus qilib «Komkor ul-ushshoq» ismlik bir devon asar tasnif qiladur. So‘nrag‘i vaqt Laffasiy tarix ilmiga havaskor bo‘lganidan Xorazm mulkiga doir va ham umumiy dunyo tarixlarin o‘qimoqqa boshlaganidek, 1904 yildan boshlab tarix ilmini o‘qib, 1945 yilga qadarli tarix o‘qimoqqa havaskor bo‘lganidan Asfandiyorxonning jilusiga doir «Gulshani iqbol» nomli bir tarix asar ham tasnif qiladur. Ammo Laffasiy shunchalig‘ bilan umri ichida har yil taalluq ixtiyor qilmay umr o‘tkazib, befarzand bo‘lganidin hamma vaqtlar parishonhol bo‘lib derki, ushbu asarlar dag‘i farzand hukmida bo‘lur deb, ushbu «Tazkirai shuaro»ni tasnif qilib, o‘zidan yodgor qoldiradur» .

A.S.Erkinov, N.T.Polvonov va H.A.Aminovlar «Muhammad Rahimxon homiyliги sababli Bayoniy, Komyob, Laffasiy, Avaz O‘tar (1884-1919), Mutrib Xonaxarobiy (1860-1923), Muhammad Yusuf Harratov – Chokar

(1889-1952), Ilyosmulla Muhammad o‘g‘li So‘fi (1860-1916) kabi tarixchi va taraqqiyparvar shoirlar yetishib chiqdilar» , -deb Laffasiyni Feruz davri shoirlari qatorida sanab o‘tganlar.

Izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, Laffasiy faoliyatini uch yo‘nalishda olib borgan: tarixchi, adabiyotshunos va tazkiranavis.

Laffasiy tarixchi sifatida ko‘plab asarlar yozganligi haqidagi ma’lumotni, avvalo, O.Jalilov «Hasanmurod tarixchi sifatida qator tarixiy asarlar yaratgan. Ma’lumotlarga qaraganda u 1905 yildan boshlab tarix ilmi bilan shug‘ullangan. O‘rta Osiyo tarixiga oid juda ko‘p qo‘lyozma, tarixiy asarlar va hujjatlarni o‘rgangan» , deb yozadi. M.Matyobovning «XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Xiva xonligida kitobat va kutubxona tarixi» nomli nomzodlik dissertatsiyasida esa, «XX asr boshlarida Xiva xonligi tarixi bo‘yicha Xorazm tarixchilaridan mullo Hasanmurod qori ibn Muhammad Amin ibn Muhammad Nazar devon ibn Qilich Niyozboy ibn Niyozmuhammad mahram, Xudoyberdi ibn Qo‘shmuhammad ibn Niyoz Muhammad, Ahmadjon Tabibiy, Komyob, Jumaniyoz hoji Xorazmiy al Xivaqiy ibn Boboniyoz, Abdulla Boltaev, Bobojon Safarov, Polvonniyoz hoji Yusupovlar asarlar yozdilar, bu tarixiy asarlar biz ko‘rayotgan davr tarixini o‘rganishda birlamchi manbalar hisoblanadi» , deyiladi. Adabiyotshunos

olima S.Samandarova esa, «U Xorazm tarixini aks ettiruvchi «Xorazm tarixiy materiallari», «Ozodnoma», «Gulshani iqbol» nomli tarixiy asarlarini, «Xiva shoirlari», «Tazkirai shuaro» tazkiralari, «Mehr-muhabbat» nomli she'riy dostonini yaratdi, o'z she'rlarini jamlab «Komkor ul- ushshoq» devonini tuzdi», deb yozgan. Laffasiyning o'zi esa «Tazkirai shuaro» asarining 103a-varag'ida «So'ngrog'i vaqtlar Laffasiy tarix ilmiga havaskor bo'lub, Xorazm xonlig' tarixlarin o'qub, juda ham mahoratlig' bo'lg'onidan, umumiy dunyo tarixlarin ham o'qub, aning ila mashg'ulotlig' qilib turadur.» , deb yozgan. Bulardan kelib chiqib aytish mumkinki, Laffasiy tarix ilmiga juda qiziqqan va shu tufayli ko'plab tarixiy materiallarni o'qib, o'rganishi natijasida o'zining «Gulshani saodat», «Xiva voqealari», «Xorazm tarixiy materiallari», «Xiva osori atiq tarixlari», «Xorazm mamlakati va hududlari» nomli asarlarini yozib qoldirgan.

Laffasiyning «Tazkirayi shuaro»da ta'kidlaganidek, «Komkor ul-ushshoq» nomli devoni va «Mehr-muhabbat» nomli she'riy dostoni ham bizga meros bo'lib qolgan. Biroq bu asarlar qacda va kimning qo'lida ekanligi noma'lumligicha qolmoqda. «Tazkirayi shuaro»dagi shoir she'rlarini o'rganar ekanmiz, Laffasiyning turli janrlarda ijod qilganligini guvohi bo'lamiz. «Tazkirayi shuaro» asarining 12561 raqamli qo'lyozma nusxasida Laffasiyning 4 ta g'azal, 1 ta muxammas, 5 ta ruboiysi, 213 raqamli qo'lyozma nusxasida 3 ta g'azal 1 ta muxammasi, P.Bobojonov nashrida 2 ta g'azali, 1 ta ruboiysi berilgan.

Laffasiy masnaviy janrida ham barakali ijod qilgan. «Tazkirayi shuaro» asarida ellikdan ortiq shoir haqida masnaviylar bitgan. Masnaviylarida har bir shoirning nasl-nasabi, fazilatleri, fe'l-atvori, she'rlari haqida fikr yuritadi. Bu esa uning Ahmadjon Tabibiy faoliyatidan ta'sirlanganini, uning uslubidan foydalanganini ko'rsatadi. Masalan, Munisga atab quyidagi masnaviyini yozgan:

Muniskim birinchi az shuaro,
Nasr va nazm barobar anga.
Agar kelsa forsiy, lug'ati arabi,
Qilur takallum ona tili kabi.

Hasanmurod Laffasiy tazkiranavislikda o'zidan boy ijodiy meros qoldirgan. Bu haqda O'zbekiston milliy ensiklopediyasining 238-betida o'qiymiz: «U o'zining «Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari» tazkirasida xalq orasida mashhur bo'lgan Munis Xorazmiy, Ogahiy, Rog'ib, Feruz va Chokar kabi 51 nafar Xorazmlik ijodkorning tarjimai holi va ijodi haqida ma'lumot bergan. Asarda Laffasiy o'z she'rlaridan ham namunalar keltirgan». «Tazkirai shuaro»ning O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan 9494, 11499, 12561 raqamli va O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyidagi 213 raqamli qo'lyozma nusxasi turli yillarda ko'chirilgan.

O'rganishlarimiz shuni ko'rsatdiki, «Tazkirai shuaro» asari Xiva adabiy muhiti doirasida ijod qilgan oltmishga yaqin qalamkashlarning hayot yo'li va ijodiy merosi to'g'risida boshqa yondosh manbalarda mavjud bo'lmagan qimmatli ma'lumotlarni qamrab olganligi va tazkiranavislikning davomiyligiga qo'shgan hissasi bilan muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, asar bevosita o'sha davrda yashab ijod etgan muallif tomonidan yozib qoldirilganligi bilan ham ilmiy-tarixiy qiymatga ega.

Laffasiy nafaqat asarlar yozish, balki kitoblar yig'ishga bo'lgan qiziqishi kuchli olim bo'lgan. Bu haqda, «Muhammad Rahim II–Feruz kutubxonasi fehristi»ida shunday yoziladi: «Kutubxonalari bor ma'rifat sohiblarini mahorat bilan tasvirlagan Laffasiyning ham shaxsiy kutubxonasi mavjud bo'lgan. Uning kutubxonasiga tegishli «Javohir al-Qur'on» nomli toshbosma asar O'zR FA ShI kutubxonasida 7048 tartib raqami bilan saqlanadi. Uning 1-varag'ida «Domla Hasanmurod qori mulaqqab ba Komkor», 1314/1896 sana» degan yozuv bor. Ya'ni u kitobni shu yili qo'lga kiritgan. Lekin kitobda uning 1380/1910 yil sanasi qo'yilgan (111-betida) 180x220 mm o'lchamli, sakkiz burchakli muhri mavjud. Demak, u uzoq yillar davomida kitob yig'ish bilan shug'ullangan». Laffasiyning 12581 raqamli «Xorazm tarixiy materiallari» qo'lyozmasining 1a va 32a, 36a varaqlarida lotin yozuvida o'zining shaxsiy kutubxonasi muhri, ya'ni «Hasan Madaminuf» deb yozilgan muhr mavjudligi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Hasanmurod Laffasiy 1949 yil avgust oyida vafot etgan. Shu o'rinda aytish joizki, uning vafot yili ham ba'zi adabiyotlarda noto'g'ri berilgan. Chunonchi, «Muhammad Rahimxon II–Feruz kutubxonasi fehristi» kitobining 8-betida Laffasiyning vafoti 1942 yil deb yozib qo'yilgan bo'lsa, O'zbek Milliy ensiklopediyasining 238-betida 1945 yil vafot etgan, deb berilgan. Vaholanki, tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgan tazkira qo'lyozmalarini o'rganishimiz natijasida shunga amin bo'ldikki, Hasanmurod Laffasiyning «Tazkirai shuaro» asari 213 raqamli qo'lyozmasining 1a varag'ida

خيوه شاعرلارى 1948 نجى يىل 22 نجى ابيون 1367 نجى هجرى شعبان توفلاغوجى خيوه دولت موزىي»
«تارىخچى ليكتورى حسنموراد محمد امين اوغلى لفسى

«Xiva shoirlari. 1948nji yil 22nji iyun 1367nji hijriy sha'bon, to'flog'uvchi Xiva davlat muzeyi tarixchi lektori Hasanmurod Muhammad Amin o'g'li Laffasiy». Qo'lyozmaning oxirgi 61a varag'ida esa,

نجى يىل 26 نجى ابييل 1367 نجى هجرى 20 نجى رمضان رقيم فقير حسنموراد قارى محمد امين اوغلى 1948
لفسى

«1948nji yil 26nji iyul – 1367nji hijriy 20nji ramazon. Raqimi faqir Hasanmurod qori Muhammad Amin o'g'li Laffasiy» deb yozilgan. Agar 213 raqamli qo'lyozmani Laffasiyning o'z dastxati ekanini inobatga oladigan bo'lsak, adib tazkirani 1948 yil 26 iyulda yozib tugatgan. Bundan ko'rinib turadiki, Laffasiy 1948 yil iyul oxirida ham hayot bo'lganligi oydinlashadi.

Bunga boshqa ishonchli dalilni ham keltiramiz: Xivada nevroptolog Abdusharif Ro‘zmetov bilan uchrashdik. U kishi Laffasiyning Ahmadjon ismli ukasining chevarasi ekan. Abdusharif Ro‘zmetov bizga Hasanmurod Laffasiyni 1949 yil 13 avgustda vafot etganligini aytdi. Bu jihatdan olim Sayyora Samandarovaning quyidagi tasdiqlovchi ma’lumotlari ham e’tiborlidir: «Tarixchi olim, tazkiranavis Hasanmurod Laffasiy 1949 yilda Xivada vafot etgan» . Bulardan tashqari «Tazkirai shuaro»ning 11499 raqamli nusxasi 24b varag‘ida asar oxiriga Abdulla Boltaevning «Mazkur Laffasiy 1949 yil avgust oyida vafot etdi», deb yozib qo‘ygani ham yuqoridagi ma’lumotlarni tasdiqlaydi.

Abdusharif Ro‘zmetovning guvohlik berishicha, Hasanmurod Laffasiy onadan 4 o‘g‘il bo‘lishgan. Hasanmurod, Husanmurod, Saloy, Ahmadjon. Hasanmurod Laffasiydan farzand qolmagan. Husanmurod, Saloy va Ahmadjon ismli ukalarining farzandlari, nevaralari va chevaralari bor. Ulardan Husanmurod va Ahmadjon ismli ukalarining farzandlari hozirda Xivaning Ichan qal’a, O‘zbekiston ko‘chasida yashashadi, biz tadqiqotimiz asnosida Hasanmurodning Husanmurod va Ahmadjon ismli ukalarining chevara va evaralari bilan uchrashdik. Laffasiyning yana bir ukasi Saloyning farzandlari, nevara-chevaralari esa Hazoraspda turishadi, turli kasb egalari ekan. Ular ham Laffasiyning hayoti va ijodi, ayniqsa, avtobiografiyasi, vafot sanasiga doir ishonchli manba, qimmatli ma’lumotlarni taqdim etishdi.

Hasanmurod Laffasiy barakali ijod qilgan ijodkor va u asarlari bilan o‘zbek adabiyoti tarixida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan adibdir. Uning asarlari Xorazm adabiy muhitini yoritishda qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Дўстова С. Баёний девонининг 1120 рақамли қўлёзмаси. Туркий халқлар филологиясида фундаментал тадқиқотлар ва инновацион технологиялар номли халқаро илмий амалий конференция. Нукус 2022. Нукус давлат педагогика институти. 79- бет.
- 2.Жалилов О. Ҳасанмурод Лаффасий. –Т.: Ўзбекистон, 1983. –Б.3.
- 3.Жумахўжа Н. ва Адизова И.Сўздин бақолироқ ёдгор йўқдур. . –Т.: Ўзбекистон, 1995. –Б. 8, 98-99.
- 4.Иброҳимова Э. Хива шоир ва адабиётчиларининг таржимаи ҳоллари // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент. 1963. – № 6. –Б. 62-64.
- 5.Комил Аваз. Олис оҳанглар. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1997. –Б.36.
- 6.Лаффасий. Хива шоир ва адабиётчиларининг таржимаи ҳоллари. ЎзР ФА Шарқшунослик институти асосий фонди 9494 рақамли қўлёзма 2а,в , 14а варақлар.
- 7.Лаффасий. Тазкирайи шуаро. ЎзР ФА Шарқшунослик институти асосий фонди 12561 рақамли қўлёзма 39в варақ.
8. Лаффасий. Тазкирайи шуаро. Урганч. Хоразм. 1992.-Б.41

- 9.Лаффасий. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент. ЎМЭ, 2003 .– Б. 238.
- 10.Лаффасий. Хива шоир ва адабиётчиларининг таржимаи ҳоллари. ЎзР ФА Шарқшунослик институти асосий фонди 11499 рақамли қўлёзма 10а варақ.
- 11.Матёкубова М. XIX асрнинг иккинчи ярми XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва кутубхона тарихи: Тарих фан. номз.... диссер. –Урганч, 2008. –Б.50.
- 12.Отамуродова А. Абдурахимов О. Маоний арсаи. –Т.: Tafakkur qanoti, 2012. – Б.38.
- 13.Раҳим Д., Матрасул Ш. Феруз.–Т.: EXTREMUM PRESS, 2011.–Б. 238.
- 14.Самандарова С. XX аср тазкиралари: Филол.фан. номз... дис. автореферати. – Тошкент, 1996. –Б.6.
- 15.Эркинов А.С., Полвонов Н. Т., Аминов Ҳ.А. Муҳаммад Раҳимхон II-Феруз кутубхонаси феҳристи. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. –Б.8.
- 16.Юсупов Ю. Хоразм шоирлари. – Т.: Бадий адабиёт, 1967. – Б.91
17. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4818
18. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4819
19. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4836
20. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2375